O‘zbek va ingliz tillarida inson tana-a’zolari harakatini ifodalovchi til birliklarining strukturaviy-semantik va pragmatik xususiyatlari

Usmonova Sarvinoz Muhammadjon qizi
Andijon davlat chet tillari instituti
Xorijiy filologiya va turizm fakulteti
ORCID: 0009-0005-0590-7781
E-mail: monroe80027170@gmail.com
+998-88-002-00-48

Ataboyev Ahadjon Jumaqo‘ziyevich
Ilmiy rahbar:
filologiya fanlari doktori (DSc), professor
https://doi.org/10.5281/zenodo.24159746

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada o‘zbek va ingliz tillarida inson tana a’zolarining harakatini ifodalovchi til birliklari strukturaviy-semantik va pragmatik jihatdan qiyoslab o‘rganiladi. Tana a’zolari ishtirokida hosil bo‘lgan sodda fe’llar, birikmali fe’llar, frazeologik birliklar va imo-ishoralar, ularning bevosita hamda ko‘chma ma’nolari tahlil qilinadi. Shuningdek, bu birliklarning nutqda hissiy-ekspressiv ma’no berishi, muloqot maqsadini ro‘yobga chiqarishi va milliy-madaniy xususiyatlarni ko‘rsatishdagi o‘rni yoritiladi. Ikki tildagi o‘xshash va farqli tomonlarni aniqlash orqali tana harakatlarini ifodalovchi birliklarning til bilan madaniyat o‘rtasidagi bog‘liqligi ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: tana a’zolari, harakat fe’llari, strukturaviy xususiyatlar, semantika, pragmatika, frazeologik birliklar, imo-ishoralar, nutqiy muloqot, milliy-madaniy xususiyatlar.

KIRISH:

Tilning muhim vazifalaridan biri – inson faoliyatidagi harakatlarni ifodalashdir. Tana a’zolari bilan bog‘liq harakatlar o‘zbek va ingliz tillarida ham tez-tez uchraydi, ma’no jihatidan boy bo‘lib, nutqda turli pragmatik vazifalarni bajaradi. Maqolada ikki tildagi tana a’zolari harakatiga oid leksemalar, frazeologizmlar va fe’llarning strukturaviy-semantik tavsifi hamda ularning nutqda qo‘llanilishidagi pragmatik xususiyatlari tahlil qilinadi. Har ikki tilda bunday birliklar tuzilishi jihatidan o‘xshash: asosiy guruhni sodda fe’llar, birikmali fe’llar va frazeologik iboralar tashkil qiladi. Ma’no jihatidan ular faqat jismoniy harakatni emas, ko‘chma ma’nolarni ham ifodalaydi. Pragmatik jihatdan esa ularning qo‘llanishi muloqot vaziyatiga, madaniy me’yorlarga va ijtimoiy masofaga bog‘liq. Ikki tildagi o‘xshashlik va farqlarni bilish tarjima, til o‘rgatish va lingvistik tadqiqotlar uchun muhimdir.

1. Strukturaviy xususiyatlar.

Inson tana-a’zolari harakatini ifodalovchi birliklar odatda quyidagi grammatik guruhlarga mansub bo‘ladi:

sodda fe’llar ya’ni o‘zbek tilida: irg‘amoq, ko‘tarmoq, silkitmoq, burmoq, qoqmoq, qaramoq. Ingliz tilida: *raise*, *shake*, *turn*, *look*, *nod*, *blink*.

Ingliz tilida phrasal verblar tana a’zolari harakatini ifodalashda keng qo‘llaniladi: *to shake off*, *to lift up*, *to turn around*. O‘zbek tilida esa bu holat ko‘proq fe’l+ravishdosh, fe’l+ko‘makchi fe’l ko‘rinishida uchraydi: qo‘l siltab yubormoq, qo‘lini ko‘tarib qo‘ymoq, ko‘z qisib qo‘ymoq.

2. Semantik xususiyatlar.

Tana-a'zolari bilan bog'liq birliklar ikki asosiy semantik guruhga bo'linadi:

To'g'ridan-to'g'ri ma'nolar. Bu holda fe'l yoki birikma aniq jismoniy harakatni bildiradi: u boshini burdi – *he turned his head*, u ko'zini ochdi – *she opened her eyes*.

Semantik jihatdan har ikki tilda ham denotativ ma'no bir xil.

Ko'chma ma'nolar. Har ikkala tilda tana-a'zolari ko'chma ma'no yaratishda juda faol ishlatiladi: qo'l berish – yordam ko'rsatmoq, *to lend a hand* – yordam bermoq, ko'z yumish – e'tibor bermaslik, *to turn a blind eye* – bilib turib ko'rmaslikka olish.

3. Pragmatik xususiyatlar.

Tana-a'zolari harakati bilan bog'liq birliklarning qo'llanishi muloqot vaziyatiga qarab o'zgaradi.

Emotsional yuklama. Ko'plab tana harakatlari nutqda hissiy holatni ifodalaydi: u yelkasini qisdi – befarqlik, *she shrugged her shoulders* – befarqlik yoki bilmaslik.

Madaniy tafovutlar. Ba'zi tana harakatlari turli madaniyatlarda turlicha pragmatik ma'no kasb etishi mumkin. O'zbek madaniyatida ko'z qisish ko'pincha tanish-belgilash yoki ishora hisoblanadi. Ingliz madaniyatida *winking* ba'zan hazil, ba'zan *flirt* sifatida tushunilishi mumkin.

Har bir xalqning tilida, nutqida va harakatlarida o'ziga xos strukturaviy-semantik va pragmatik xususiyatlar bor. Bunday xatti-harakatlar insonning qaysi millat yoki hududga mansubligini, saviyasini, xarakterini, ruhiy holatini, maqsadi va kayfiyatini, qiziqish va qarashlarini ko'rsatib turadi. O'zbek xalqining bu boradagi uslublari ham o'ziga xos va betakrordir. Odamlar bir-biri bilan muloqot qilar ekan, imo-ishoralar har qadamda uchrashi tabiiy. Masalan, salomlashishning bir necha ko'rinishi bor:

Yoshi ulug' insonlarga "Assalomu alaykum" deyish bilan birga o'ng qo'lni ko'ksiga qo'yib salom berish odob-axloqning yuksak namunasi hisoblanadi. O'zbek kelinlarining uch marta egilib salom berishi ham yuksak axloqiy fazilat sanaladi.

Ilmiy anjuman yoki majlis boshlangandan keyin kirgan odam boshqalarning diqqatini chalg'itmaslik uchun "Assalomu alaykum" deyish o'rniga bosh irg'ab qo'yishi ham madaniyat belgisidir. Hol-axvol so'rashda ham shunga o'xshash harakatlar uchraydi. Masalan, "Ahvollaringiz qanday?" degan savolga "zo'r" deb javob berib, bosh barmoqni yuqoriga ko'tarish – "mixday" ishorasi. Bu ishora ko'proq yaqin do'stlar va yoshlar o'rtasida uchraydi. Bu harakatga nisbatan "bikr" so'zi ham ishlatiladi. Buyuk adib G'ofur G'ulom o'z asari qahramonining xarakterini ochib berish uchun mos so'zni topa olmay, vodiyga kelib, aholi orasida yurgan va shu so'zni eshitib, asarida qo'llagan.

Bemor hol so'ralganda gapirmasdan, ko'zlarini yumib-ochish orqali ahvolidan xabar beradi. Tanbeh ishoralari ham bor. Bu ishora ota-onaning bolaga, ustozning shogirdiga bildiradigan yengil koyishini ifodalaydi, ularni tartibga chaqiradi va ko'rsatkich barmoqni havoda bir necha marta silkitish orqali bajariladi. Bu harakat tanbehdan tashqari qoyil qolish, erkalash va hayratlanish ma'nolarini ham bildirishi mumkin. Jiddiyroq xato qilgan kishiga nisbatan qo'lni musht qilib ko'rsatish ham uchraydi. Bu ishora qattiqroq ogohlantirishni, xatoni takrorlamaslikka undashni, qo'rqitishni bildiradi. U jiddiy xatolarning oldini olish, uzoqdan turib qo'rqitish va masala qanchalik og'ir ekanini uqtirish uchun qo'llanadi.

XULOSA

Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatdiki, o'zbek va ingliz tillarida inson tana a'zolari harakatini ifodalovchi birliklar tuzilishi, ma'nosi va nutqda qo'llanishi jihatidan murakkab hodisadir. Ular sodda fe'llar, birikmali fe'llar, frazeologik birliklar va imo-ishoralar shaklida uchraydi. Bunda tana a'zosining nomi harakat qaysi sohaga tegishli ekanini va nimani anglatishini aniqlashtiradi.

Ma’no jihatidan bu birliklar faqat jismoniy harakatni bildirmaydi, balki yordam, e’tiborsizlik, befarqlik, rozilik, ogohlantirish kabi ko‘chma va pragmatik ma’nolarni ham ifodalaydi. “Qo‘l berish” — “lend a hand”, “ko‘z yumish” — “turn a blind eye”, “yelkasini qisish” — “shrug one’s shoulders” misollari ayrim obrazli modellar ikkala tilda ham uchrashini ko‘rsatadi.

Pragmatik tahlil tana harakatining ma’nosi vaziyatga, suhbatdoshlar munosabatiga, ijtimoiy masofaga va madaniy me’yorlarga bog‘liqligini ko‘rsatdi. Shuning uchun imo-ishorani kontekstdan ajratib talqin qilish yoki uning ma’nosini hamma madaniyatda bir xil deb hisoblash to‘g‘ri emas.

Tarjimada ham bu birliklarning faqat lug‘aviy ma’nosiga emas, balki kontekstdagi mazmuniga, hissiy-ekspressiv bo‘yog‘iga va milliy-madaniy xususiyatlariga e’tibor berish kerak. Chunki bir tildagi imo-ishora yoki frazeologik birlik boshqa tilda aynan shu pragmatik ma’noni bermasligi mumkin.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, o‘zbek va ingliz tillaridagi tana harakatini ifodalovchi birliklarni strukturaviy-semantik va pragmatik jihatdan qiyoslash ikki xalqning til olamini, milliy tafakkurini va muloqot madaniyatini chuqurroq anglashga yordam beradi. Tadqiqot natijalari qiyosiy tilshunoslik, lingvokulturologiya, pragmalingvistika, frazeologiya va tarjimashunoslik sohalarida nazariy hamda amaliy ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Argyle, M. (1988). Bodily Communication. 2nd ed. London: Methuen.
2. Birdwhistell, R. L. (1970). Kinesics and Context: Essays on Body Motion Communication. Philadelphia: University of Pennsylvania Press.
3. Ekman, P., & Friesen, W. V. (1969). The repertoire of nonverbal behavior: Categories, origins, usage, and coding. Semiotica, 1(1), 49–98. https://doi.org/10.1515/semi.1969.1.1.49
4. Kendon, A. (2004). Gesture: Visible Action as Utterance. Cambridge: Cambridge University Press. https://doi.org/10.1017/CBO9780511807572
5. Wierzbicka, A. (1991). Cross-Cultural Pragmatics: The Semantics of Human Interaction. Berlin: Mouton de Gruyter.
6. Yule, G. (1996). Pragmatics. Oxford: Oxford University Press.